XALQ DEPUTATLARI QUVASOY SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2021 - yil 30 - dekabr VI-41-83-11-167-K/21 Quvasoy shahar hokimligi

Quvasoy shahri bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun 2022-yilda jismoniy va yuridik shaxslarga mutlaq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni ko‘rib chiqish (belgilash) to'g'risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429,437-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-sonli Farmoni 4-bandiga muvofiq viloyat moliya boshqarmasi va davlat soliq boshqarmasining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar” loyihasi bo‘yicha kiritgan takliflari muhokama etib, xalq deputatlari shahar Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi xulosasini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi qonunining 6,24,27-moddalariga asosan, xalq deputatlari shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasining 2021-yil 8-noyabrdagi 19/10-68220-sonli, Farg‘ona viloyat Moliya bosh boshqarmasi va Davlat soliq boshqarmasining 2021-yil 12-noyabrdagi 01/02/33/731-sonli va 15-63189-sonli qo‘shma xatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari

Kengashlari 0,5 dan 2,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llagan holda, ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan bazaviy soliq stavkalari asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, soliq stavkalarini belgilashi, shuningdek, tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari, ushbu moddaning ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisida belgilangan soliq stavkalariga, Toshkent shahri uchun esa-ushbu moddaning birinchi qismida belgilangan bazaviy soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida kiritishi belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Xalq deputatlari shahar Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi yig‘ilishida shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari hamda moliya va soliq organlari vakillari tomonidan taklif etilgan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar doimiy komissiya a’zolari tomonidan hudud manfaatlaridan kelib chiqib, tahlil qilinganligi, bu bo‘yicha doimiy komissiyaning tegishli bayoni rasmiylashtirilganligi inobatga olinsin.

4. “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar” miqdorlarini ko‘rib chiqish (belgilash) bo‘yicha xalq deputatlari Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi taklifiga o'zgartirish kiritilsin.

5. Viloyat Moliya bosh boshqarmasi va viloyat Davlat soliq boshqarmasining 2021-yil 12-noyabrdagi 01/02/33/731-sonli va 15-63189-sonli qo‘shma xatida quyidagilar, Yer solig‘ining amaldagi soliq stavkalari 2022-yilda 1,07 baravarga indeksatsiya qilinishi kutilayotganligi;

Quvasoy shahri uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yuridik shaxslarga 1 ga uchun 25,09 mln.so‘m va jismoniy shaxslarga 1 kv.m uchun 221,0 so‘m bazaviy soliq stavkasi belgilanishi ko‘zda tutilganligi;

kelgusi yil bazaviy soliq stavkasiga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar qo‘llashda keyingi yil mahalliy byudjet daromadlari prognozidan kelib chiqish bo‘yicha tavsiyalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik

shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar” miqdorlarini belgilash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasining 2021-yil 8-noyabr kungi 19/10-68220-sonli, Moliya bosh boshqarmasi va viloyat Davlat soliq boshqarmasining 2021-yil 12-noyabrdagi 01/02/33/731-sonli va 15-63189-sonli qo‘shma xatlari ma’qullansin.

Shunga ko‘ra:

Quvasoy shahri hududida 2022-yil qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdorlari **1-ilovaga** muvofiq, Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, Soliq idoralariga jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) summasi 2021-yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozimligi;

tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlariga viloyat xalq deputatlari Kengashi tomonidan belgilangan yer solig‘i stavkalariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni kiritish huquqi berilganligi alohida ko‘rsatib o‘tilsin.

7. Xalq deputatlari shahar Kengashi keyingi soliq davri uchun soliq stavkalarini joriy soliq davrining 31-dekabriga qadar shahar Davlat soliq inspeksiyasiga taqdim etsin.

8. Shahar Davlat soliq inspeksiyasi (X.Urmanov) yer solig‘i bo‘yicha tasdiqlangan soliq stavkalarini 1-yanvarga qadar barcha soliq to‘lovchilarga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yetkazilishini ta’minlasin;

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda o‘z vaqtida byudjetga undirilishini nazoratga olib borish;

tegishli byudjetning ijro etilishi jarayonida unga tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha qo‘shimcha zaxiralarni aniqlash;

yer solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali tashkil etish choralarini ko‘rib borsin.

9. Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari X.Xoldorov shahardagi tegishli vakolatli organlar bilan birgalikda mazkur Kengash qarori bilan belgilangan bazaviy soliq stavkalariga kiritilayotgan koeffitsiyentlarni qo‘llab borilishi yuzasidan o‘rnatilgan tartibda monitoringlar o‘tkazib borsin.

10. Xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlari O‘zbekiston Respublikasining “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan mazkur Kengash qarori bilan belgilangan bazaviy soliq stavkalariga kiritilayotgan koeffitsiyentlarni qo‘llab borilishi yuzasidan deputatlik va jamoatchilik nazoratini o‘rnatsin.

11. Shahar hokimligi Axborot xizmati (Z.Abdulajonov), mazkur Kengash qarori bilan tasdiqlangan (belgilangan) bazaviy soliq stavkalariga kiritilayotgan koeffitsiyentlar shahar “Isfayram” gazetasida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

12. Belgilansinki, ushbu soliq stavkalari xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan bazaviy soliq stavkasiga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash bo‘yicha o‘tkazilgan muhokamalar natijalari va bu bo‘yicha qabul qilingan qaror asosida amaliyotga kiritiladi.

13. Mazkur Kengash qarori ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi A.Qasimov hamda shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari X.Xoldorovlar zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **Mexmonov M. D.**

Халқ депутатлари Қувасой шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-41-83-11-167-K/21-сон қарорига
1-илова

Quvasoy shahrida qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

ming so‘mda

T/r	Shahar va tuman nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (1 ga uchun)
1	Arsif MFY	0,80	20 648
2	Qalacha MFY	0,80	20 648
3	Yangi obod MFY	0,80	20 648
4	Yukori Muyan MFY	1,00	25 810
5	Muyon MFY	1,00	25 810
6	Isfayramsoy MFY	1,00	25 810
7	Kokilon MFY	1,00	25 810
8	Pakana MFY	1,00	25 810
9	Do‘stlik MFY	0,70	18 067
10	Qo‘chqorchi MFY	0,80	20 648
11	Namuna MFY	0,80	20 648
12	Bo‘ston MFY	0,70	18 067
13	Valik MFY	0,80	20 648
14	Nayman MFY	0,70	18 067
15	Sufon MFY	0,80	20 648
16	A.Temur MFY	1,00	25 810
17	M.Ulug‘bek MFY	1,00	25 810
18	Xuvaydo MFY	1,00	25 810
19	A.Navoiy MFY	1,00	25 810
20	Cho‘lpon MFY	1,00	25 810
21	Lashkar MFY	1,00	25 810
22	Bog‘bon MFY	1,00	25 810
23	Polmon MFY	1,00	25 810
24	Zebuniso MFY	1,00	25 810
25	Soy buyi MFY	1,00	25 810
26	Yoshlik MFY	1,00	25 810
27	Ziynat MFY	1,00	25 810
28	X.Olimjon MFY	1,00	25 810
29	Guliston MFY	1,00	25 810
30	Xamdo‘stlik MFY	1,00	25 810

Халқ депутатлари Қувасой шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-41-83-11-167-K/21-сон қарорига
2-илова

Quvasoy shahrida jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

so‘mda

T/r	Shahar va tuman nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (1 ga uchun)
1	Arsif MFY	0,80	176,8
2	Qalacha MFY	0,80	176,8
3	Yangi obod MFY	0,70	154,7
4	Yukori Muyan MFY	1,00	221,0
5	Muyon MFY	1,00	221,0
6	Isfayramsoy MFY	1,00	221,0
7	Kokilon MFY	1,00	221,0
8	Pakana MFY	1,00	221,0
9	Do‘stlik MFY	0,70	154,7
10	Qo‘chqorchi MFY	0,80	176,8
11	Namuna MFY	0,80	176,8
12	Bo‘ston MFY	0,70	154,7
13	Valik MFY	0,80	176,8
14	Nayman MFY	0,70	154,7
15	Sufon MFY	0,80	176,8
16	A.Temur MFY	1,00	221,0
17	M.Ulug‘bek MFY	1,00	221,0
18	Xuvaydo MFY	1,00	221,0
19	A.Navoiy MFY	1,00	221,0
20	Cho‘lpon MFY	1,00	221,0
21	Lashkar MFY	1,00	221,0
22	Bog‘bon MFY	1,00	221,0
23	Polmon MFY	1,00	221,0
24	Zebuniso MFY	1,00	221,0
25	Soy buyi MFY	1,00	221,0
26	Yoshlik MFY	1,00	221,0
27	Ziynat MFY	1,00	221,0
28	X.Olimjon MFY	1,00	221,0
29	Guliston MFY	1,00	221,0
30	Xamdo‘stlik MFY	1,00	221,0